

KRIPTOVALYUTALAR VA ULARNING XALQARO MOLİYAVIY TIZIMGA TA'SIRI

Maksudova Hayotxon

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti talabasi.

Annotatsiya: *So'nggi yillarda raqamli aktivlar, xususan, Bitcoin, Ethereum va boshqa kryptoaktivlar global miqyosda moliyaviy bozorlarda faol muomalaga kiritilib, an'anaviy bank va to'lov tizimlariga muqobil sifatida shakllanmoqda. Ushbu tezisda kriptovalyutalarning vujudga kelish tarixi, ularning texnologik asoslari, blokcheyn texnologiyasi, huquqiy maqomi va jahon moliya institutlari tomonidan ularga bo'lgan munosabat yoritilgan. Xususan, Xalqaro valyuta jamg'armasi Jahon banki, Yevropa markaziy banki va boshqa muassasalar pozitsiyasi tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *kriptovalyuta, Bitcoin, Ethereum, raqamli valyuta, blokcheyn texnologiyasi, kriptografiya, markazlashmagan tizim, virtual aktiv, raqamli tranzaksiya, smart kontrakt, kryptoaktiv, an'anaviy valyuta, moliyaviy texnologiya*

KIRISH

Hozirgi zamon moliyaviy tizimi tez sur'atlarda rivojlanmoqda va raqamli texnologiyalarning ta'siri kengaymoqda. Shular qatorida, kriptovalyutalar - blokcheyn asosida yaratilgan raqamli aktivlar, moliya va iqtisodiyot sohasida inqilobiy o'zgarishlarga sabab bo'lmoqda. 2009 yilda Bitcoinning paydo bo'lishi bilan boshlangan bu jarayon nafaqat yangi turdagi moliyaviy vositalarni yaratdi, balki xalqaro moliya tizimidagi mavjud tartib va munosabatlarni ham qayta ko'rib chiqishga undadi. Kriptovalyutalar, an'anaviy valyutalardan farqli ravishda, markazlashmagan, hukumat yoki markaziy banklar tomonidan emas, balki butun dunyo bo'ylab foydalanuvchilar tarmog'i tomonidan nazorat qilinadi. Bu ularni yangi iqtisodiy modellarning va to'lov tizimlarining asosiga aylantirmoqda. Shuningdek, kriptovalyutalar xalqaro moliyaviy operatsiyalarni soddalashtirish, komissiyalarni qisqartirish va tranzaksiyalarni tezlashtirish imkoniyatlarini taqdim etadi. Ammo, kriptovalyutalarning bu salohiyati bilan birga, ularning xalqaro moliyaviy tizimga ta'siri va ularni regulativ jihatdan qanday boshqarish kerakligi xalqaro mutaxassislar va siyosatchilar o'rtasida keng muhokamalarga sabab bo'lmoqda. Xavfsizlik muammolari, moliyaviy qonunbuzarliklarga imkon yaratish kabi xavotirlar kriptovalyutalarning global miqyosda qabul qilinishiga to'siq bo'lishi mumkin. Shu sababli, kriptovalyutalarning xalqaro moliyaviy tizimdagi o'rnini, ularning samaradorligi va xavf-xatarlarini tahlil qilish muhim ahamiyatga ega.

Natija va muhokimalar

Kriptovalyutalar - raqamli yoki virtual valyutalar bo'lib, ular kriptografik usullar orqali yaratiladi va nazorat qilinadi. Ular biror markaziy bank yoki davlat tomonidan chiqarilmaydi. Kriptovalyutalarning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- Markazlashmagan tuzilma

- Chegarasiz tranzaktsiyalar
- Shaffoflik
- Anonimlik
- Chegaralangan ta'minot

Kriptovalyutalar tarixi 2008-yilga borib taqaladi. Aynan shu yili "Satoshi Nakamoto" taxallusi ostida biror noma'lum shaxs yoki guruh Bitcoin kriptovalyutasini taklif qildi. 2009-yilda esa birinchi tranzaksiya amalga oshdi. Birinchi yirik muvaffaqiyat 2010-yilda yuz berdi: bir dasturchi 10,000 bitcoinga ikkita pizza sotib oldi. Bu voqea hozirgacha "Bitcoin Pizza Day" sifatida eslanadi. Keyinchalik bozorda ko'plab alternativ kriptovalyutalar - Ethereum, Litecoin, Ripple, Cardano va boshqalar paydo bo'ldi. Ayni paytda minglab token va kriptoaktivlar mavjud. Bu yangi turdagi raqamli valyuta markazlashmagan, ya'ni u markaziy bank yoki hukumat nazoratisiz, blokcheyn texnologiyasi yordamida ishlaydi. Blokcheyn - bu ma'lumotlarni xavfsiz va o'zgarmas shaklda saqlovchi tarqatilgan tizim bo'lib, u orqali barcha tranzaksiyalar ochiq va shaffof tarzda qayd etiladi. Bu xususiyatlar kriptovalyutalarni an'anaviy moliyaviy tizimlardan farq qiluvchi, yangi imkoniyatlar va xavflarni yuzaga keltiruvchi vositaga aylantiradi. Kriptovalyutalarning xalqaro moliyaviy tizimga ta'siri bir necha jihatdan namoyon bo'ladi. Birinchidan, ular xalqaro pul o'tkazmalarini soddalashtiradi va tezlashtiradi. An'anaviy tizimlarda xalqaro tranzaksiyalar ko'pincha banklar orqali o'tib, ko'p vaqt va yuqori komissiyalarni talab qiladi. Kriptovalyutalar esa bunday tranzaksiyalarni global miqyosda tez, kam xarajat bilan amalga oshirish imkonini beradi. Bu ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlar uchun katta afzallik bo'lib, ularda bank xizmatlari cheklangan yoki qimmatga tushadi. Ikkinchidan, kriptovalyutalar yangi investitsiya va kapital yig'ish yo'llarini yaratdi. ICO kabi yangi moliyalashtirish shakllari startaplar va loyihalarga oddiyoq va tezroq sarmoya jalb qilish imkoniyatini berdi. Shu bilan birga, kriptoaktivlar global investitsiya portfellarida yangi aktiv sinfi sifatida o'z o'rnini topmoqda. Uchinchi jihat - moliyaviy inklyuziya. Kriptovalyutalar internetga ulangan har kimga moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkonini beradi, ayniqsa an'anaviy bank tizimlariga kira olmagan aholining moliyaviy faoliyatini kengaytiradi. Bu esa global iqtisodiy tengsizlikni kamaytirishga yordam beradi. Ammo kriptovalyutalar bilan bog'liq bir qator xavf-xatarlar ham mavjud. Eng katta muammo — regulativ noaniqlikdir. Turli mamlakatlarda kriptovalyutalarni qabul qilish, tartibga solish yoki taqiqlash bo'yicha turlicha yondashuvlar mavjud. Ba'zi davlatlar ularni rasmiy moliyaviy vosita sifatida tan olishga harakat qilsa, boshqalari xavfsizlik va noqonuniy faoliyatlarga imkoniyat yaratishi sababli qat'iy cheklovlar o'rnatmoqda. Bu esa global moliyaviy tizimda muvozanatni saqlashni murakkablashtiradi. Xavfsizlik masalalari ham dolzarbdir. Kripto birjalari va hamyonlar kiberhujumlar va firibgarliklarga moyil. Agar foydalanuvchilar o'z kalitlarini yo'qotsa yoki maxfiy ma'lumotlari oshkor bo'lsa, u holda mablag'larni tiklash imkoniyati yo'q. Bu investorlar uchun katta xavf hisoblanadi. Bundan tashqari, kriptovalyutalarning anonimligi va markazlashmagan tabiati ular yordamida pul yuvish, soliq to'lashdan

qochish, terrorizmni moliyalashtirish kabi noqonuniy harakatlar uchun qulay vosita bo'lishi mumkinligi xavotirlarini yuzaga keltiradi. Shu sababli xalqaro hamjamiyatda kriptovalyutalarni nazorat qilish va qonuniy jihatdan tartibga solish masalalari muhim mavzuga aylangan. Yana bir murakkabli, kriptovalyutalarning narxi juda o'zgaruvchan bo'lib, bu ularni kundalik to'lov vositasi sifatida qo'llanishiga to'sqinlik qiladi. Bozorning yuqori volatilitigi investorlar va foydalanuvchilar uchun katta xavf tug'diradi. Kelajakda kriptovalyutalarning xalqaro moliyaviy tizimga integratsiyasi yanada kuchayishi kutilmoqda. Ko'plab davlatlar o'zlarining markaziy bank kriptovalyutalarini, masalan, CBDC — Central Bank Digital Currency, joriy qilish ustida ish olib bormoqda, bu esa raqamli valyutalar va an'anaviy moliyaviy tizim o'rtasidagi chegara va munosabatlarni yangi bosqichga olib chiqadi.

Shuningdek, blokcheyn texnologiyasi moliyaviy xizmatlar, sug'urta, savdo, logistika kabi ko'plab sohalarda jarayonlarni avtomatlashtirish va samaradorlikni oshirish imkonini bermoqda. Bu esa butun xalqaro iqtisodiyotga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Blokcheynning afzalliklari:

- O'zgarish kiritib bo'lmaydi, bu esa firibgarlikning oldini oladi.
- Shaffoflik va tranzaksiyalarni kuzatish imkoniyati.
- Avtomatlashtirilgan shartnomalar orqali avtomatik ishlar bajariladi

Yil	Voqea
1982	David Chaum tomonidan ilk kriptografik g'oyalar
2008	Bitcoin whitepaper e'lon qilindi (Satoshi Nakamoto)
2009	Birinchi blokcheyn – Bitcoin ishga tushdi
2015	Ethereum – smart-kontraktlar davri boshlandi
2020	DeFi va NFT texnologiyalari ommalashdi
2022-2025	Ethereum 2.0, Web3, va CBDC kabi yangi yo'nalishlar

Kriptovalyutalarning xalqaro moliyaviy tizimga ta'sirini tushunishda ularning texnologik asoslarini chuqurroq o'rganish muhimdir. Blokcheyn texnologiyasi nafaqat xavfsizlikni ta'minlabgina qolmay, balki tranzaksiyalarni avtomatlashtirish va ishonchliligini oshirishda ham muhim rol o'ynaydi. Smart-kontraktlar, aqlli shartnomalar, orqali moliyaviy bitimlar avtomatik tarzda, vositachilarsiz amalga oshiriladi, bu esa jarayonlarni tezlashtirib, xarajatlarni kamaytiradi. Shu sababli, ko'plab xalqaro moliya institutlari va korporatsiyalar blokcheyn texnologiyasini o'z tizimlariga integratsiya qilishga harakat qilmoqda.

Xalqaro miqyosda kriptovalyutalar moliyaviy tizimga kirib kelishi bilan tartibga solish sohasida ham muhim o'zgarishlar yuzaga kelmoqda. Masalan, FATF - Financial Action Task Force kabi xalqaro tashkilotlar kriptovalyutalar sohasidagi yuvish va moliyaviy jinoyatlar bilan kurashish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqmoqda. Shu bilan birga, ko'plab mamlakatlar kriptovalyutalar uchun maxsus qonunlarni qabul qilmoqda yoki mavjud moliyaviy qonunchilikni yangilamoqda. Bu jarayon global moliyaviy xavfsizlikni ta'minlash, investorlarga himoya yaratish va noqonuniy faoliyatlarni oldini olish maqsadida olib borilmoqda.

Kriptovalyutalarning moliyaviy bozorlarga ta'siri ham sezilarli darajada oshmoqda. Ular yangi turdagi aktiv sifatida investorlarga diversifikatsiya imkoniyatini yaratadi, shuningdek, ba'zi mamlakatlarda inflyatsiya va valyuta beqarorligi muammolarini kamaytirishda muqobil yechim sifatida qabul qilinmoqda. Masalan, Venesuela, Zimbabve kabi davlatlarda aholining katta qismi kriptovalyutalardan himoya vositasi sifatida foydalanmoqda. Shu bilan birga, kriptovalyutalarning ekologik ta'siri ham dolzarb muammo hisoblanadi. Bitcoin kabi ba'zi kriptovalyutalar qazib olish, mining, jarayoni yuqori energiya talab qiladi va bu global isish va ekologik muammolarni kuchaytiradi. Bu esa yana bir bor ularning rivojlanishi va qabul qilinishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Xalqaro moliyaviy tizimda kriptovalyutalar va an'anaviy moliyaviy institutlar o'rtasidagi integratsiya jarayoni ham murakkab va ko'p qatlamli jarayon bo'lib, u yangi moliyaviy mahsulotlar, xizmatlar va platformalarning paydo bo'lishiga sabab bo'lmoqda. Masalan, DeFi - Decentralized Finance (markazlashmagan moliya) sohasining rivojlanishi bilan an'anaviy bank xizmatlari va moliyaviy vositalarga raqobatchi tizimlar yuzaga keldi.

Bu esa butun moliyaviy ekotizimning transformatsiyasiga olib kelmoqda. Shu nuqtai nazardan, kriptovalyutalar nafaqat texnologik innovatsiyalar balki moliyaviy demokratiya, ya'ni moliyaviy xizmatlarga kengroq kirishni ta'minlash vositasi sifatida ham qabul qilinmoqda. Bu esa rivojlanayotgan mamlakatlarda iqtisodiy o'sish va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashda muhim omil bo'lib xizmat qilishi mumkin. Yana bir muhim jihat, kriptovalyutalar va ularning tarqalishi milliy suverenitet va valyuta siyosati uchun yangi chaqiriqlar yaratmoqda.

Markaziy banklar va hukumatlar uchun o'z milliy valyutasining raqamli shaklini yaratish va uni xalqaro maydonda raqobatlashishini ta'minlash muhim vazifaga aylangan. Shu bois, ko'plab davlatlar CBDC loyihalarini rivojlantirishga katta e'tibor qaratmoqda. Umuman olganda, kriptovalyutalar xalqaro moliyaviy tizimning kelajagi sifatida ko'rilmoqda, biroq ularning muvaffaqiyati ko'plab omillarga bog'liq.

Texnologik taraqqiyot, regulativ siyosat, xalqaro hamkorlik va ijtimoiy qabul qilish jarayonlari muvaffaqiyatli integratsiyani ta'minlaydi.

Shu tariqa, kriptovalyutalar nafaqat yangi moliyaviy imkoniyatlar yaratadi, balki global moliya tizimining barqarorligi va xavfsizligini mustahkamlashga hissa qo'shadi.

Xulosa qib aytamda, blokcheyn - bu yo'l yoki infratuzilma bo'lsa, kriptovalyuta shu yo'ldan harakatlanadigan transport vositasi ya'ni pul

Xulosa

Kriptovalyutalar zamonaviy moliyaviy tizimda innovatsion yondashuv sifatida katta imkoniyatlarga ega bo'lishi bilan birga, ayrim muammolar va xavflarni ham yuzaga keltirmoqda. Ularning xalqaro to'lovlar, investitsiya va pul-kredit siyosatiga bo'lgan ta'siri tobora ortib bormoqda.

Shu bois, kriptoaktivlar bozorini tartibga solish, ularning shaffofligini ta'minlash va moliyaviy barqarorlikni saqlash dolzarb vazifalardan biridir. Davlatlar va xalqaro

moliyaviy institutlar bu borada muvofiqlashtirilgan siyosat yuritishlari zarur. Kelajakda kriptovalyutalar moliya sohasida yanada keng tarqalishi va raqamli iqtisodiyotning ajralmas qismiga aylanishi kutilmoqda.

Shu bois, ular bilan bog'liq jarayonlarni diqqat bilan kuzatib borish, imkoniyat va xavflarni muvozanatlash hamda innovatsiyalarni rag'batlantirish uchun keng ko'lamli strategiyalar ishlab chiqish muhimdir.

Umuman olganda, kriptovalyutalar xalqaro moliyaviy tizimga yangi nafas olib kirayotgani shubhasiz, ammo ularning kelajagi jahon hamjamiyati tomonidan qanday qabul qilinishiga bog'liq bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Nakamoto, S. Bitcoin: A Peer-to-Peer Electronic Cash System. 2008
- 2.Tapscott, D., & Tapscott, A. Blockchain Revolution. 2016
3. <https://bitcoin.org/bitcoin>